

AXSIKENT KOMPLEKS EKSPEDITSIYASINING G‘OVASOY VOHASIDA AMALGA OSHIRGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLARI

Bekmirzayev Islomjon Ibrohlim o‘g‘li

Katta ilmiy xodim, O‘zR FA Antropologiya instituti

bekruchka@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-4400-4896>

+998903621002

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21031444>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Axsikent kompleks ekspeditsiyasining G‘ovasoy vohasida amalga oshirgan arxeologik tadqiqotlari yoritilgan bo‘lib, unda ekspeditsiya tomonidan vohada olib borilgan keng ko‘lamli fundamental tadqiqotlar natijalari tahlil etiladi. G‘ovasoy vohasida hozirgi kunda bronza davriga oid Bibiona, temir davriga oid Qirqxujra hamda ilk o‘rta asrlarga mansub Balandtepa va Munchoqtepa yodgorliklari aniqlangan bo‘lib, ushbu hududda olib borilayotgan kompleks arxeologik izlanishlar Farg‘ona vodiysining qadimgi tarixini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Axsikent kompleks ekspeditsiyasi, G‘ovasoy vohasi, arxeologik tadqiqotlar, Bibiona yodgorligi, Qirqxujra, Balandtepa, bronza davri, temir davri, ilk o‘rta asrlar, Farg‘ona vodiysi, kompleks izlanishlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются археологические исследования, проведённые Аксицентской комплексной экспедицией в Гавасайской долине, где анализируются результаты масштабных фундаментальных исследований, осуществлённых экспедицией. В настоящее время в Гавасайской долине выявлены памятники эпохи бронзы Бибиона, железного века Кыркхужра, а также раннего Средневековья Баландтепа и Мунчоктепа. Комплексные археологические исследования,

проводимые на данной территории, имеют важное научное значение для изучения древней истории Ферганской долины.

Ключевые слова: Аксицентская комплексная экспедиция, Гавасайская долина, археологические исследования, памятник Бибиона, Кыркхужра, Баландтепа, бронзовый век, железный век, раннее Средневековье, Ферганская долина, комплексные исследования.

Annotation: This article discusses the archaeological research conducted by the Axsikent Complex Expedition in the G‘ovasoy Valley, analyzing the results of large-scale fundamental studies carried out by the expedition. At present, archaeological sites in the G‘ovasoy Valley include Bibiona, dating to the Bronze Age; Qirqxujra, dating to the Iron Age; and Balandtepa and Munchoqtepa, belonging to the Early Medieval period. The complex archaeological investigations carried out in this area are of significant scientific importance for studying the ancient history of the Fergana Valley.

Keywords: Axsikent Complex Expedition, G‘ovasoy Valley, archaeological research, Bibiona site, Qirqxujra, Balandtepa, Bronze Age, Iron Age, Early Middle Ages, Fergana Valley, complex investigations.

G‘ovasoy vohasi hozirgi kunda Farg‘ona vodiysining shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, uning hududi Namangan viloyatining Pop va Chust tumanlari hamda Qirg‘iziston Respublikasining Jalolobod viloyati O‘la-Buqa tumani doirasini qamrab oladi. Voha tabiiy-geografik jihatdan uch qismga quyi, o‘rta va yuqori vohalarga bo‘linadi.

Quyi G‘ovasoy vohasi asosan pasttekisliklardan iborat bo‘lib, G‘ovasoy daryosi Sirdaryo tomon yo‘nalgan holda bir necha irmoqlarga ajralib, delta hosil qiladi. Hozirgi vaqtda ushbu delta qismi Sirdaryodan taxminan 10 km yuqorida shakllangan.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, miloddan avvalgi VI asrda G‘ovasoy daryosining delta qismida, hozirgi Qirqxujra yodgorligi o‘rnida Eylatan

madaniyati doirasiga mansub shahar tipidagi manzilgoh shakllangan. Bu holat hududda qadimdan sug‘orma dehqonchilik tizimi mavjud bo‘lganini ko‘rsatib, irrigatsiya tizimlarining erta rivojlanganligini tasdiqlaydi.

O‘rta G‘ovasoy vohasi adirlar va adirorti pasttekisliklaridan iborat bo‘lib, uning asosiy qismini G‘ovasoy, Ko‘kteraksoy va Sumsarsoy daryolarining konussimon yoyilmalari tashkil etadi. Vohaning relyefi uch asosiy morfologik birlikka tog‘li hududlar (37%), o‘tloqlar (33%) va adirliklar (30%)ga bo‘linadi. Ushbu nisbat G‘ovasoy vohasining geomorfologik jihatdan murakkab tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tog‘li hududlar vohaning gidrologik tizimi va tabiiy resurslarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Tekislik zonalari qadimgi dehqonchilik, sug‘orma xo‘jalik va doimiy aholi manzilgohlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratgan bo‘lsa, adirlik hududlari chorvachilik, ovchilik hamda yarim ko‘chmanchi xo‘jalik shakllari rivojlangan o‘tish zonasi sifatida ajralib turadi.

Umuman olganda, G‘ovasoy vohasining tabiiy-geografik sharoitlari qadimgi davrlardan boshlab inson xo‘jalik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Tog‘, adir va o‘tloq landshaftlarining o‘zaro uyg‘unligi antropogen landshaftlarning erta shakllanishi hamda sug‘orma dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratgan. Har bir tabiiy-geografik zona o‘ziga xos relyef, geologik tuzilma va tarixiy taraqqiyot xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Voha o‘rta qismida qadimgi sug‘orma dehqonchilik tizimlari shakllanib, daryo va soy irmoqlarining deltasimon yoyilishi irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishiga asos bo‘lgan. Yuqori qism esa adirliklar, yoyilma konuslar va tog‘ etaklari bilan tavsiflanib, bu hududlarda aniqlangan petrogliflar qadimgi ovchi-chorvador jamoalarning xo‘jalik va madaniy faoliyatini aks ettiradi.

G‘ovasoy vohasida arxeologik va qidiruv tadqiqotlari uzoq yillar davomida olib borilgan bo‘lsa-da, ular ko‘pincha tizimsiz va fragmentar xarakterga ega

bo‘lgan. Xususan, vohaning uzoq muddatli tarixiy-madaniy taraqqiyot bosqichlari hamda antropogen landshaft sifatida shakllanish jarayoni GIS texnologiyalari va tizimli yondashuv asosida yetarli darajada o‘rganilmagan.

Hozirgi vaqtda G‘ovasoy vohasida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti ekspeditsiyasi tomonidan A. Anarbayev rahbarligida fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar vohaning o‘rta va quyi qismlarida Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti ilmiy xodimlari hamda Namangan davlat universitetining professor-o‘qituvchilari va talabalari bilan hamkorlikda izchil davom ettirilmoqda. Tadqiqotlar ko‘p bosqichli bo‘lib, vohada arxeologik qidiruv va qazuv ishlarini olib bormoqda.

Zamonaviy metodlarga asoslangan dala-qidiruv ishlari dastlab 2013-yilda O‘zR FA Arxeologiya instituti ekspeditsiyasi tarkibida tashkil etilgan bo‘lib, A. Anarbayev, M. Saidov va Z. Rahmonovlar tomonidan Namangan viloyatining arxeologik xaritasini yaratish maqsadida tizimli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlar davomida ilk bor zamonaviy GIS va GPS texnologiyalaridan foydalangan holda dala izlanishlari olib borilib, viloyat hududida 163 ta arxeologik yodgorlik qayd etilgan hamda ularning raqamli ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan. Mazkur ishlar natijasida voha arxeologiyasi uchun muhim ilmiy baza yaratilgan.

Keyingi bosqichlarda ekspeditsiya tomonidan Namangan viloyatining Chust va Pop tumanlari, xususan G‘ovasoy vohasining o‘rta va quyi qismlarida keng ko‘lamli tadqiqotlar davom ettirilgan. Ushbu ishlar 2013–2017-yillar oralig‘ida amalga oshirilib, 2021-yildan hozirgi kungacha izchil davom etmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti hamda Xitoy Fanlar akademiyasi Ijtimoiy fanlar instituti (Liu Tao, Ai Lijiang va Wang Xing) ishtirokidagi qo‘shma ekspeditsiya G‘ovasoy vohasining quyi qismida joylashgan ilk o‘rta asr Pop (Bob) shaharlari doirasidagi Balandtepa va Munchoqtepa yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar olib bormoqda.

Ayniqsa, 2021-yildan boshlab A. Anarbayev va S. Baratov rahbarligida Bibiona yodgorligida amalga oshirilayotgan kompleks arxeologik tadqiqotlar so‘nggi bronza va ilk temir davri tarixiga oid yangi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini bermoqda. Tadqiqotlar natijasida yodgorlik stratigrafiyasi aniqlashtirilib, qazishma materiallari besh asosiy qurilish gorizontiga ajratilgan.

Har bir stratigrafik qatlam bo‘yicha voha arxeologiyasida ilgari keng qo‘llanilmagan zamonaviy ilmiy usullar: mutlaq xronologiya tahlillari, arxeobotanik tadqiqotlar hamda arxeoseysmologik izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa G‘ovasoy vohasining qadimgi tarixiy-madaniy jarayonlarini yanada chuqur va kompleks o‘rganish imkonini bermoqda.

Demak, mazkur kompleks arxeologik tadqiqotlar doirasida G‘ovasoy vohasining butun hududi bo‘ylab qidiruv (razvedka) ishlari amalga oshirildi. Kosmik tasvirlardan foydalangan holda vohadagi arxeologik yodgorliklar xaritaga tushirildi. Shuningdek, Chust, Qirqxujra va Balandtepa yodgorliklarida arxeologik, geologik hamda arxeoseysmologik tadqiqotlar olib borildi. Ushbu izlanishlar natijasida antik davr va ilk o‘rta asrlar shahar topografiyasi hamda tabiiy ofatlar (kataklizmalar)ga oid yangi ilmiy ma’lumotlar olindi.

Qiyosiy tahlillar natijasida Chust manzilgohining dastlabki rivojlanish bosqichi miloddan avvalgi X–IX asrlar oxiri va boshlanish davrlariga mansubligi aniqlangan bo‘lib, bu xulosa yodgorlik stratigrafiyasi hamda arxeologik topilmalar bilan tasdiqlanadi.

Balandtepa, Qirqxujra va Temirqasmoktepa (hozirda vayron bo‘lgan) yodgorliklari doirasida olib borilgan arxeologik va arxeoseysmologik tadqiqotlar qadimgi Pop (Bob) shahrining miloddan avvalgi VII asr oxiri – VI asr boshlarida Qirqxujra yodgorligi o‘rnida shakllanganini ko‘rsatadi. Ushbu yodgorlik hozirgi Pop shahridan taxminan 2 km janubda, Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lib, tarixiy rivojlanish davomida bir necha bor suv toshqinlari natijasida vayron

bo‘lgan va sel yotqiziqlari ostida qolgan. Har bir tabiiy ofatdan so‘ng shahar qayta tiklangan.

Qirqxujra shahar manzilgohi milodiy IV asr oxiri – V asr boshlarida kuchli zilzila natijasida vayron bo‘lgan. Ushbu halokatdan so‘ng yangi shahar Balandtepa yodgorligida, Qirqxujradan taxminan 1 km g‘arbda barpo etilgan.

Balandtepa ilk o‘rta asrlarga oid Pop (Bob) shahrining xarobalari bo‘lib, u Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan edi. Shahar uch qismdan: ark (citadel), shahriston va raboddan iborat bo‘lgan. Rabodning shimoli-sharqiy qismida shahar qabristoni Munchoqtepa joylashgan. Hozirgi kunda yodgorlikning taxminan 3 gektar maydoni saqlanib qolgan bo‘lib, asosan arkning shimoliy qismi hamda shahristonning janubiy va janubi-sharqiy qismlari saqlangan.

Arxeologik materiallar tahlili VIII asr boshlarida yoki birinchi choragida kuchli tabiiy ofat yuz berganligini ko‘rsatadi. Natijada ark va shahriston aholisi rabod hududiga ko‘chib o‘tgan, ularning ilgari egallagan hududlari esa hunarmandlar tomonidan o‘zlashtirilgan. Hunarmandchilik faoliyati ushbu hududda VIII asrning so‘nggi choragigacha davom etgan.

Topilgan materiallarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘rta asrlar davrida Pop shahri yirik markaz Axsikent bilan chambarchas iqtisodiy va madaniy aloqalarda bo‘lgan. Bu hududda hunarmandchilik, ayniqsa qora metallurgiya va metallga ishlov berish yuqori darajada rivojlangan.

Umuman olganda, mazkur tadqiqotlar G‘ovasoy vohasining Farg‘ona vodiysi tarixiy-madaniy tizimidagi o‘rnini aniqlash, antropogen landshaftlarning shakllanish jarayonini chuqur tahlil qilish hamda qadimgi urbanistik markazlar evolyutsiyasini ilmiy jihatdan asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti tarix fanlari doktori, professor A. Anarbayev rahbarligida G‘ovasoy vohasi bo‘yicha olib borilgan kompleks arxeologik tadqiqotlar hududning qadimgi davrlardan o‘rta asrlargacha bo‘lgan tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonlarini yoritishda muhim ilmiy natijalarni taqdim

etdi. GIS, GPS, kosmik tasvirlar, shuningdek arxeologik, geologik va arxeoseysmologik usullar asosida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida voha yodgorliklarining to‘liq xaritasi shakllantirildi hamda yangi ilmiy ma’lumotlar olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Anarbayev A.A., Liu Tao, Ai Lijiang, Vang Xing, Baratov S., Najmiddinov A. Munchoqtepa yodgorligida 2024 yilda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar // Археологические исследования в Узбекистане: 2024 год. Вып.17. Самарканд, 2025. С.41-47.
2. Anarbayev.A. Farg‘onaning qadimgi shaharlari va ularni Markaziy Osiyo tarixida tutgan o‘rni. Toshkent.2021-yil. 11-bet
3. Анарбаев А., Баратов С., Саидов М.М., Кубаев С. Археологические исследования на городище Чильхуджра // Археологические исследования в Узбекистане 2013 г. Самарканд, 2014. С -11.
4. Анарбаев А., Корженков А. Сейсмическая опасность Ферганской долины: археосейсмологические данные. Монография. Ташкент, 2024. 248 с.
5. Анарбаев А., Матбабаев Б.Х. Раннесредневековый городской некрополь Ферганцев // ИМКУ. Вып. 29. Самарканд, 1998. С. 85-86
6. Анарбаев А.А., Баратов С. Новые археологические работы на поселении Чуст-Бибиона // История материальной культуры Узбекистана. Ташкент, 2022. Вып. 42. С. 205 -227.
7. Анарбаев А.А., Корженков А.М., Усманова М.Т., Нурматов У.А., Кубаев С.Ш., Корженкова Л.А., Караева З.А., Нажмиддинов А., Захидов Т., Юсупджанова У.А. Исторические сейсмические катастрофы на Ферганском участке Великого шелкового пути // Геофизические процессы и биосфера. 2022. Т. 21, № 3. С. 52–74. <https://doi.org/10.21455/GPB2022.3-6>,

8. Анарбаев. Древнеземледельческая культура Ферганы и динамика развития урбанизации // История и археология Турана. – №3. – Самарканд, 2017. – С. 89–104.

9. Artikov. U, Bekmirzaev. I. Ғовасой қуғи оқими ҳудудидан (Шомозор қўҳна қабристони) топилган симоб қўзачалар хусусида. *Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and Innovations*, Special Issue – 07 (2023), pp. 344–351. ISSN 2181-1415. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss7/S-pp344-351>.